ADABIYOT – MILLAT TAYANCHI

Aliqulova Sevara Shamshiddin qizi
Eliboyeva Sarvinoz Rasulbek qizi
Qo‘shimbatova Aziza Maqsudjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 10-23-guruh

Annotatsiya. Har bir millatning xalq bo‘lib shakllanishida adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Adabiyot millat tilining imkoniyati, boyligi, nafosatini namoyish etadigan san’atdir. Har bir millat uchun o‘z ona tili aziz, mo‘tabar va go‘zal. Til va adabiyot bir tan, bir jonki, ularni alohida

tasavvur etish mumkin emas. Milliy til va adabiyotning rivoji millatning madaniy ravnaqiga xizmat qiladi.

Kalit so‘z: adabiyot, til, millat, so‘z, xalq, ijod, she’riyat.

Annotatsion. The role of literature in the formation of each nation as a nation is incomparable. Literature is an art that shows the potential, wealth, sophistication of the national language. For every nation, its mother tongue is dear, dignified and beautiful. Language and literature are one body, one soul, it is impossible to imagine them separately. The development of the national language and literature serves the cultural development of the nation.

Keywords: literature, language, nation, word, people, creativity, poetry.

Til va adabiyot millatni dunyoga tanitadi. Adabiyot millat qalbining ko‘zgusi, ezgu niyatlari, orzu-armonlarini aks ettiruvchi san'at. Boshqacha aytganda, millatlarni bir-biri bilan tanishtiradigan, ularni yaqinlashtiradigan qudratli kuchdir. Bugun tez o‘zgarayotgan dunyoda, globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan, turli buzg‘unchi g‘oyalar milliy qadriyatlarimizga, ma'naviyatimizga tahdid solayotgan bir sharoitda ona tilimiz va adabiyotimizni yanada rivojlantirish, unga yoshlarning mehrini oshirish juda muhim ahamiyatga ega vazifadir.

Qadimda ham bizning zaminimizda turli millat vakillari bahamjihat yashab, bir-birlarining tillarini yaxshi bilgan, hurmat qilgan. Ota-bobolarimiz bir necha tilda so‘zlashgan va ijod qilgan. Mamlakatimizda o‘zbek tili bilan bir qatorda boshqa millatlar tiliga berilayotgan e'tibor millatlararo ahillik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Yangilanayotgan adabiyot, o‘z navbatida demokratik jamiyatning mustahkamlanishida qudratli qurol vazifasini o‘taydi. Shuning uchun ham mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining qimmatli «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» deb nomlangan asarida: «Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning amaliy natijasi o‘laroq, adabiyot va san’at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo‘lganini qayd etish joiz. Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo‘lishi va qandaydir g‘oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o‘tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma’naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to‘laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi», — deb ta’kidlagan edi.

Zamonamiz adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham ilgarigi qoliplarga sig‘maydigan, tabiiy ravishda rivojlanayotgan yangi estetik hodisadir. U odamlarga yo‘l ko‘rsatishni zimmasiga olmaydi, o‘quvchiga aql o‘rgatmaydi, hayotiy muallimlikni da’vo qilmaydi, balki badiiy tasvirning nozikligi, ifodalarning favquloddaligi, obrazlarning kutilmaganligi bilan o‘quvchida axloqiy adab, ma’naviy poklanish munosabatlarini uyg‘otadi. Bu adabiyotning jozibasi zohir (tashqi, oshkor)da emas, botin (ichkari, yashirin, sirli)da bo‘lib, badiiy matn zamiriga joylangan bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, o‘zbek milliy adabiyoti chinakamiga rang-barangdir. Uning bag‘rida turli-tuman ijodiy tajribalar kechadi, ijodiy yo‘nalish va oqimlar kesishadi va shu orqali cheksiz olam bag‘rida kechayotgan insonning murakkab dunyosi kashf etiladi. Adabiyot inson istiqboli, ruhan poklanishida ijobiy ta’sir etishiga 1-Prezident Islom Karimovning: «Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg‘or qismi bo‘lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o‘rni va ta’siri beqiyosdir» - deganlar. Shuning uchun ham har bir huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimi badiiy adabiyotni ko‘plab mutolaa qilishlari, ularda yuksak ma’naviy kamolot tamoyillari shakllanishi ayni muddaodir, deb o‘ylaymiz. Chunki, kitobxonlik qalb-shuurini, ayniqsa adabiyot orqali nafaqat badiiy, balki ilm-fan adabiyotlari, sohalar bo‘yicha esa yuridik adabiyotlar orqali kasb mahoratni egallashda ehtiyoj va tushunchalarimizni kengaytiradi, kitob odamga o‘zining “meni” hududidan tashqariga chiqishga nihoyatda katta yordam beradi.

Adabiyot milliydir, u har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqning tarixiy hayoti hamda ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyligi mazmunini tashkil etadi va

o‘ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Milliy shaklning yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig‘ilgan tajriba va an’analarning ham ahamiyati katta bo‘ladi.

Adabiyotning yuksak ma’naviy boyligini shoirlar sultoni Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ya’ni turkiy o‘zbek tilidagi benazir nazmiy misralari bilan inson va insonparvarlikni ulug‘lashga, uning ruhiy olamini yuksaltirishga xizmat qilganligini ko‘ramiz. Alisher Navoiy ma’naviy merosi, qalb-shuuriga aylangan ijodi huquq-targ‘ibot xodimlarini rostgo‘y, adolatli, sabr-toqatli, xalqning tashvishi va dardiga darmon bo‘lishga chaqiradi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan Vatanimiz himoyachilari xalqning ishonchiga kiradi, insonparvarlik g‘oyalarini puxta egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A. KARIMOV “YUKSAK MA’NAVIYAT YENGILMAS KUCH”.
2. SH.M.MIRZIYOYEV “BUYUK KELAJAGIMIZNI MARD VA OLIYJANOB XALQIMIZ BILAN BIRGA QURAMIZ”
3. “ZIYO” VA “KITOBXON” nomli internet saytlari.